
O'ZBEK VA RUS MAQOLLARIDA QADRIYATLAR MUSHTARAKLIGI

Hikmatova Zebiniso Yangiboy qiz

Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi

Ilmiy rahbar: Nilufar Zubaydova Nigmatullayevna

Annotatsiya: Maqolada ikki xalqning do'stlik va tinchliksevarlik tamoyillari adabiy ekanligi bayon qilingan. Maqolada ilmiy insoniy qadriyatlar ustunligi e'tirof qilingan. Maqolada o'zbek va rus xalqlarining donishmandligi, uzoq hayotiy tajribalari, insonparvarligi, sadoqati, aql-zakovati, bilimi, orzu-umid-lari ifodasini topgan. Shuningdek ikki xalqning yaxshilik va yomonlik, donolik va aqlsizlik, adolat va adolatsizlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, tadbirkorlik va layoqatsizlik kabi xislatlarga munosabati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ummuminsoniy qadriyatlar, do'stlik, tamoyil, xalq.

COMMON RULES IN UZBEK AND RUSSION PROVERBS

Annotation: The article states that the principles of friendship and peace between the two peoples are eternal. The article embodies the wisdom of the Uzbek and Russian peoples, long life experiences, human devotion, knowledge, dreams and hopes. It also describes the attitudes of the two peoples to virtues such as good and evil, wisdom and foolishness, justice or injustice, diligence and idleness, entrepreneurship and incompetence, purity and impurity, kindness and cruelty.

Key words: Universal values, friendship, principle, people.

Maqollar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida vujudga kelgan. Ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi tajriba ko'prigi bo'lib kelayotgani maqollar bizni hamisha mehnatsevarlikka, vatanni sevishga, to'g'rilikka, sabr-toqatga, tinch – totuv yashashga da'vat etib keladi. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda rang-barang bo'lib turfa xil mavzularni o'z ichiga oladi. Ularda yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, xalqparvarlik va vatansevarlik, xalollik va odobsizlik, saxiylik va baxillik, ota – ona xizmati, yaxshi qo'shnichilik va birodarlik, do'st va dushmanlik, kamtarlik va mehmondo'stlik, bilim olish va bilimsizlik, tinchlik va kasb-hunar, do'stlik va insoniylik kabi turmushning hamma sohalari qamrab olingan.

Maqollarni o'qir ekansiz otalar so'zi asrlar osha o'z mazmunini yo'qotmagani, lardagi fikrlar insoniyat hayoti uchun mayoq ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

Maqollar barcha xalqlarda mavjud bo'lib , har bir millatning o'ziga xos xususiyati ,yashash tarzining barhayotligi bilan ajralib turadi . Ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar aks etib turadi . Yer yuzidagi barcha xalqlar uchun qadrli bo'lgan , insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keladigan moddiy va madaniy xodisalar , an'ana va tamoyillar ummuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi . O'zbek va rus maqollarida ham ikki xalqning qadriyatlari mushtarakligi aks etgan . Maktablarda va boshqa o'quv maskanlarda o'zbek va rus maqollarini qiyosiy tahlil qilish ulardagi mavzular ikki xalqning do'stligi, tinchligi ,hayotidagi yutuqlar,yer yuzidagi barcha xalqlar insonparvarlik tamoyillari asosida yashaganlaridan dalolat beradi.

Бек живи, век учись” maqolida doimiy o'qish lozimligini yoshlarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izla ” maqoli orqali, “Глаза боятся, а руки делают” maqolini “Ko'z qo'rqqoq qo'l botir ” maqoli orqali, “Дерево держится корнями, а человек друзьями” maqolini “Daraxt po'sti bilan odam do'sti bilan ” maqoli orqali , “Паши не лениво- проживёшь счастливо” maqolini “Mehnat qilsang baxt topasan ” maqoli orqali , “Кто любит труд, того люди чтут” maqolini “Mehnat qilgan elda aziz” maqoli orqali tushuntirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'pgina rus maqollari o'zbek maqollari bilan uyg'unlashib ketgan Masalan:”Семь раз отмер,- один раз отрежь”-/ “Yetti o'lchab bir kes ”/, “Что посеешь, то и пожнёшь”- /“Nima eksang shuni o'rasan ”/ kabi maqollar ikki xalqning qadriyatlar mushtarak ekanligi isbotlab beradi .Shunday ekan yoshlarni insonparvarlik tamoyillari asosida tarbiyalash davrning eng asosiy vazifasidir .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbek xalq maqollari" Muhammadali Ibratov (2006-yil).
2. Fernando,C (1996). Idioms and Idiomaticity .Oxford University press.
3. “Russkie posloviy i pogovorki “ (Rus maqollari va iboralari) (Vladimer Dal) (1860-1861).
4. McCarthy,M.,&O'Dell,F(2003)English Idioms in Use .Cambridge University Press.
- 5.”Moral'nye I filosofskie posloviy “ (Falsafiy va axloqiy maqollar)(1860).